

NAZAR ESHONQUL HIKOYALARIDAGI PSIXOLOGIK TAHLIL

Yusupboyeva Farangiz

Urganch Ranch texnologiya universiteti talabasi

Annontatsiya: Bugungi kunda zamonaviy nasrimizda yozuvchi Nazar Eshonqulning ijodi o'ziga xos bo'lgan ahamiyatga ega hisoblanadi. Yozuvchining uslubi tasvir va talqindagi o'zgacha yondashuvi bilan boshqalardan farq etadi. Ushbu maqolada Nazar Eshonqulning hikoyalarida uchraydigan asosiy psixologik jihatlar va ularning o'zaro aloqalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ichki ziddiyat, emotsional muhit, inson psixikasi, sotsial ta'sir, psixologik tahlil, G'arb adabiyoti an'analari.

Nazar Eshonqul – o'zining chuqur psixologik tahlillariga ega bo'lgan hikoyalari bilan tanilgan yozuvchilardan hisoblanadi. Yozuvchi 1962-yil Qashqadaryo viloyati qamish tumanida tavallud topgan. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasida, „Yozuvchi“ gazetasida, „Jahon“ jurnalida faoliyat olib bordi. Nazar Eshonqul o'zbek nasriga, alohida o'rinda hikoyachiligimizga o'zgacha ruhiyat, o'zgacha bo'lgan ovoz va ruhiyatni olib kirdi. U hikoya janrini Sharq va G'arb adabiyoti an'analari bilan uyg'unlashtirgan yozuvchilar qatoridan o'rin egallagan. Uning dastlabki asari - „Urush odamlari“ qissasi hisoblanadi. Shundan keyin yozuvchining „Momo qo'shiq“, „Yalpiz hidi“, „Ufq ortidagi quyosh“, „Maymun yetaklagan odam“, „Shamolni tutib bo'lmaydi“, „Shaftoli guli“ nomli bir qator kitoblari nashr etilgan. Bundan tashqari adibning „Ajr“, „Ochilmagan eshik“, „Muolaja“, „Tobut“, „Og'riq lazzai“, „Qo'l“, „Bahouddinning iti“, „Qultoy“, „Shamolni tutib bo'lmaydi“ kabi o'nlab hikoyalari, „Go'r o'g'li yoxud hayot suvi“ nomli romani ham zamonaviy adabiyotimizning beqiyos namunalariga aylangan. Uning o'zbek falsafiy estetikasini shakllantirish yo'lidagi ma'rifiy xizmatlari alohida o'ringa ega.

Nazar Eshonqul hikoyalrida odamlarning bir-biriga bo'lgan munosabatlarini va jamiyatning ta'sirini alohida ajratib tasvirlaydi. Ahamiyatli vaziyatlar va qahramonlarning qarorlari ko'pincha ularning ijtomoiy muhitidan ham kelib chiqadi. Shaxsiy tajribalar o'rtasidagi ziddiyatlar ham psixologik murakkablikni keltirib chiqaradi. Yozuvchining „Tobut“ hikoyasi o'ziga xos bo'lgan ahamiyat kasb etadi. Unda insoniy tuyg'ular, hayot va o'lim mavzulari keng yoritilib berilgan. Hikoyadagi nozik til va tasviriy uslub kitobxonni o'ziga g'oyatda jalb etadi, kitobxon psixikasiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi, to'liqlantiradi. Hikoyaning asosiy mazmun mohiyati o'lim va uning atrofida sodir bo'lib turgan ruhiy holatlarga qaratilgandir. Hikoya keng va uzun chekka muzofotning bir shahrida yuz bergan sirli o'limning sabablarini aniqlash

uchun keltirilgan me'mor tilidan bayon etiladi. U o'zini bu ishga jalb etilganidan norozi bo'ladi.

Hikoya g'ayri tabiiy o'limning junbog'ni topish uchun masalaga oydinlik kiritmoqchi bo'lgan arxitektor butun shahar bo'ylab ayalnib chiqadi. Lekin nima sababdan bunday vaziyat bo'lib turgani hech kimga ayon bo'lmaydi. Shahar kundan kunga cho'kib borayotgan qoyaga o'xshaydi. Shaharni bunyod etgan me'mor men qancha qilsam ham ular mendan norozi, shaharni men barpo etdim degan fikrlarni bildiradi. Me'mor vafot etadi cho'nagidan esa juda eski bo'lgan qog'oz chiqadi, u xatni arxitektor yigitga olib kelishdi. Bu qog'ozda xarita tushirilgan bo'ladi buni ko'rgan arxitektor larzaga tushib, qotib qoladi. U endi o'lim sababini tushindi. Eng kulminatsion nuqta shahar TOBUT shaklida barpo etilgan bo'ladi. Nazar Eshonqulning deyarli barcha hikoyalari mana shunday yuqori tempda bo'lgan psixikalarga, mohiyatlarga, tasvirlashlarga, mazmunga egadir. Kitobxonni o'qigan har bir hikoyasi o'zida ushlab, uni to'liqlantiradi. Shu o'rinda yozuvchining har bir asarida emotsional muhit ham ustuvor ahamiyatni kasb etadi. Hayotda inson doimo o'ziga bo'lgan qat'iyat va ishonch bilan yahashi vas hu yo'lda harakat qilishi lozim. Hayotdagi qiyinchiliklar, to'siqlar sizning fikrlaringizning o'zgarishi, ishonchigizning yo'qolishiga sabab bo'lmasligi kerak deb o'ylayman. Zero, hayot yorqin insonlar, yorqin fikrlar, yorqin bo'yoqlar bilan turli ranglarda jilolanadi. Ana shu xislatlarning barchasi yozuvchimizda yuqori darajadadir. Nazar Eshonqul haqida O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'ofurov shunday deydi „Nazar Eshonqul mening nazarimda bizning o'zbek adabiyotida duyuno adabiyotlarining eng ilg'or oqimlari va usullarini chuqur o'rgangan va o'z asarlarida targ'ib qilgan” dedilar. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori Bahodir Xoliqov shunday fikr bildirgan „Nazar Eshonqul asarlari orqali Yevropa, shuningdek, Lotin Amerikasi yozuvchilarining asarlarini ham to'g'ri tushunish, ularning asarlarini anglash, his etish imkoniyatiga ega bo'lamiz”.

Nazar Eshonqul estetik tafakkuriy bo'lgan fikrlarni, sirli majozli timsollari bilan alohida ajralib turadi. Adib adabiyotga globallashtirgan davrning universal odami obrazini olib kirgan. Tafakkur va mavzu mohiyati g'oyatda kengdir. Ayniqsa o'zbek tabiatiga xos bo'lgan yurtni, o'z zamini sevish, ona zaminiga bo'lgan muhabbat tuyg'usi hisoblanadi. „Ozod qushlar”, „Maymun yetaklagan odam” kabi o'nlab hikoyalarda ozod vatanning ozod sohibi obrazlari turkumi yaratilgandir.

Adabiyotlar ro'yhati;

1. Ziyo istagan qalblar uchun. -Nazar Eshonqul [1962]
2. Nazar Eshonqul. Tobut [hikoya] 2013.
3. Nazar Eshonqul. „Maymun yetaklagan odam” Toshkent „Yangi asr avlodi” - 2004.
4. A.Norbekova „Nazar Eshonqul hikoyalari uslubi”.